



Formation, historical and methodological foundations, and functions of tutoring activities in modern education

Nilufar URINOVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2022

Received in revised form

10 October 2022

Accepted 25 November 2022

Available online

25 December 2022

Keywords:

tutoring,
pedagogical monitoring,
developmental dialogue,
reflective analysis,
historical-methodological
foundations,
pedagogical collaboration,
individualized approach,
modern education,
functional enhancement,
professional competencies.

ABSTRACT

This article presents a scientific-theoretical analysis of the formation of tutoring activity, its historical roots, and methodological foundations. Particular attention is given to the early manifestations of tutoring within the British educational system, its stages of conceptual development, reinterpretation in the context of modern educational environments, and transformation into a pedagogical model across various international practices. The article also explores the functional directions of tutoring in today's education, specifically focusing on pedagogical monitoring, organizing developmental dialogue, and deepening students' learning engagement through reflective analysis. The transition from the traditional "instructor-led" model to a professional approach based on subject-subject interaction and support of personal growth is critically examined.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss6-pp206-211>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tyutorlik faoliyatining shakllanishi, tarixiy-metodologik asoslari va zamonaviy ta'limdagi funksiyalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tyutorlik,
pedagogik monitoring,
rivojlantiruvchi muloqot,
reflektiv tahlil,
tarixiy-metodologik asoslar,
pedagogik hamkorlik,
individual yondashuv,
zamonaviy ta'lim,
funktional yuksalish,

Ushbu maqolada tyutorlik faoliyatining shakllanish jarayoni, uning tarixiy ildizlari va metodologik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Xususan, tyutorlik konsepsiyasining ingliz ta'lim tizimidagi dastlabki namoyon bo'lish shakllari, uning konseptual rivojlanish bosqichlari, zamonaviy ta'lim muhitida qayta talqin qilinishi va turli davlatlar tajribasida shakllangan pedagogik modelga aylanishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada tyutorlik faoliyatining

¹ Candidate of Pedagogical Sciences, Acting Professor, Fergana State University. E-mail: urinova.nm@mail.ru

professional
kompetensiyalar.

zamonaviy ta'limdagi funksional yo'nalishlari, xususan, pedagogik monitoringni olib borish, rivojlantiruvchi muloqotni tashkil etish hamda reflektiv tahlil orqali talabanning o'quv faoliyatini chuqurlashtirish kabi funksiyalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Tyutorlikning an'anaviy "yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi" modelidan hozirgi kundagi "subyektlararo hamkorlik va shaxsiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi" professional pozitsiyaga o'tish jarayoni tahlil qilinadi.

Формирование тьюторской деятельности, ее историко-методологические основы и функции в современном образовании

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

тьюторство,
педагогический
мониторинг,
развивающий диалог,
рефлексивный анализ,
историко-
методологические основы,
педагогическое
взаимодействие,
индивидуальный подход,
современное образование,
функциональное
развитие,
профессиональные
компетенции.

В статье дана научно-теоретическая интерпретация процесса формирования тьюторской деятельности, раскрыты её исторические корни и методологические основания. Особое внимание уделено первоначальным формам проявления тьюторства в британской образовательной системе, этапам концептуального развития данного явления, его переосмыслению в условиях современного образовательного пространства, а также трансформации в педагогическую модель, представленную в международной практике. Также рассмотрены функциональные направления тьюторской деятельности в современных условиях, в частности, такие как ведение педагогического мониторинга, организация развивающего диалога и углубление учебной активности студентов через рефлексивный анализ. Анализируется переход от традиционной модели «наставничества» к современной профессиональной позиции, основанной на субъект-субъектном взаимодействии и поддержке личностного роста.

KIRISH

XXI asrda ta'lim butun dunyo miqyosida barqaror taraqqiyotning muhim strategik omili sifatida e'tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha mo'ljallangan global ta'lim konsepsiyasida "...har bir inson uchun butun hayot davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash" ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2]. Ushbu yondashuv uzluksiz ta'lim tizimini, xususan, masofaviy o'qitish, individual ta'lim yo'nalishlari va ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishning dolzarb yo'nalishlarini ilgari surmoqda. Bunday kontekstda tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tyutorlik – bu zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda talabanning individual o'quv yo'lini qo'llab-quvvatlash, unga metodik yordam berish va ta'limiy hamroh bo'lish orqali shaxsiy va akademik rivojlanishni ta'minlaydigan muhim faoliyat turi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, masofaviy, aralash (blended) va modul asosidagi o'qitish tizimlarida tyutorlik o'quv jarayonining ajralmas komponenti sifatida shakllanmoqda.

Bugungi kunda “tyutor” atamasi bir qancha izoh va talqinlarga ega. Ingliz tilidagi “tutor” soʻzining bevosita tarjimasi “murabbiy”, “yoʻl koʻrsatuvchi”, “yoʻriqchi”, “oʻqituvchi” kabi maʼnolarni anglatadi. Pedagogik-psixologik terminlar lugʻatida tyutor – bu “oʻz oʻquvchilari uchun bilimli murabbiy, oʻquv jarayonini yengillashtiruvchi shaxs” deb tariflanadi. Professor A. Xoliqov oʻz ilmiy maqolasida tyutor tushunchasiga quyidagicha izoh beradi: “Tyutor – oʻquv kurslarini interfaol tarzda taqdim etish boʻyicha metodik va texnologik tayyorgarlikka ega boʻlgan mutaxassis.”

Mazkur maqolada tyutorlik faoliyatining tarixiy shakllanish bosqichlari, uning metodologik asoslari va zamonaviy taʼlimda tutgan funksional oʻrni tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu faoliyat turining anʼanaviy va innovatsion koʻrinishlari oʻrtasidagi uzviylik, pedagogik hamkorlik va reflektiv yondashuv asosidagi oʻziga xos jihatlariga ilmiy yondashuv asosida eʼtibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarixiy manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, tyutorlik faoliyati kamida 900 yillik tarixga ega boʻlib, u oʻqitish madaniyati bilan uzviy bogʻliq holda shakllangan va mustaqil pedagogik faoliyat turi sifatida rivojlanib kelgan. Bu faoliyatning mazmuni hamda taʼlim-tarbiya jarayonidagi oʻrni ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarga qarab bosqichma-bosqich oʻzgarib, takomillashib borgan.

Tadqiqotlarda tyutorlik faoliyatining rivojlanish tarixini quyidagi toʻrt asosiy bosqichga ajratish maqsadga muvofiq deb topiladi [3]:

I bosqich (XII–XVI asrlar): Tyutorlar talabalarni mustaqil taʼlim olishga yoʻnaltiruvchi, ularga maslahat va koʻmak beruvchi shaxs sifatida namoyon boʻlgan. Bu davrda talaba oʻzi qaysi professorni tinglashni tanlagan va taʼlim jarayonida erkin harakat qilgan. Tyutorlar esa talabaning mustaqil bilim olish yoʻlini belgilashda akademik yordamchi boʻlgan.

II bosqich (XVI–XIX asrlar): Tyutorlik faoliyati ingliz universitetlari tizimida rasman tan olingan kasbga aylangan. Talabalar dastlabki bosqichda haftalik hisobotlar bilan tishingizni davom ettirgan. Ular bilan individual ish olib borilgan va tarbiyaviy masalalarda ham masʼuliyat yuklatilgan.

III bosqich (XIX–XX asrlar): Bu davrda tyutorlar asosiy bilim manbai hisoblangan. Ular talabalarni imtihonlarga tayyorlash bilan shugʻullangan, taʼlim jarayonida mustaqil mavzularni tanlab, ularni talabalarga yetkazgan. Tyutorlik faoliyati professorlik (nemis) modelini siqib chiqaruvchi pedagogik tizim sifatida rivojlangan.

IV bosqich (XXI asr): Tyutorlik zamonaviy kasb sifatida shakllanib, oʻqituvchilik faoliyatining yangi shakli va lavozim majburiyatlarini belgilash bilan ajralib turadi. Hozirgi bosqichda tyutorlik faoliyati nafaqat akademik yoʻl-yoʻriq berish, balki rivojlantiruvchi muloqot, reflektiv tahlil, psixologik-pedagogik qoʻllab-quvvatlash, taʼlimni individuallashtirish funksiyalarini oʻz ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlilida koʻrsatib oʻtilganidek, XII asrda Oksford va Kembrij universitetlarida tyutorlik faoliyati murabbiylik sifatida shakllangan boʻlib, talabalarni bilim olishga yoʻnaltirish, ularning oʻquv yoʻlini shakllantirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim oʻrin tutgan. Ayniqsa, talaba-professor erkin munosabatlarida tyutorlar vositachilik funksiyasini bajargan.

XVI–XVII asrlarda bu faoliyat tarbiyaviy mazmun bilan boyib, talabaning axloqiy va ijtimoiy xulqini shakllantirish, oʻzini tuta bilish, darslarga qatnashish va umumiy hayotiy tartib-intizomga rioya qilishga yoʻnaltirilgan. Tyutorlar talabalarni tanlagan fanlari va maʼruzalariga yoʻnaltirgan, individual reja tuzish, kurs tanlash, imtihonlarga tayyorlanishda ham faol koʻmak bergan.

XVII asrda esa ingliz universitetlarida tyutorlik tizimi muhim pedagogik institutga aylangan bo'lib, ommaviy darslar va kafedralar yo'qligi sababli ta'lim jarayoni to'liq tyutorlar zimmasiga yuklangan. Tyutorlar 1–2 talabani o'z atrofiga jamlab, ularga muayyan ilmiy yo'nalishda ta'lim berishgan va baholash jarayonini ham o'zlari olib borgan.

Ushbu tarixiy-metodologik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tyutorlik faoliyati boshlang'ich bosqichlarda mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlovchi, so'ngra esa shaxsiy tarbiyani shakllantiruvchi va to'laqonli pedagogik institut sifatida rivojlanib borgan. U zamonaviy ta'limda esa shaxsiylashtirilgan, ko'maklashuvchi va reflektiv ta'limning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi tarixiy va nazariy tahlillar asosida aytish mumkinki, tyutor – bu talaba shaxsiga individual yondashgan holda uni akademik, axloqiy va kasbiy jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi murabbiydir. Tyutorlik faoliyati tarixan bilim beruvchi funksiyadan tashqari, tarbiyaviy va reflektiv yo'nalishlar bilan ham boyigan. XIX asr oxirlariga kelib, universitetlarda erkin kurslar va fakultativ ma'ruzalar tizimi shakllangan bo'lsa-da, talabaning o'z fanini, professorini va o'qitish shaklini tanlash erkinligi saqlanib qolgan. Bu holatda tyutorlarning o'rni pasaymagan, aksincha, ular talabaning individual ta'lim yo'lini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lgan.

XVIII–XX asrlar davomida Angliyaning qadimiy universitetlari – Oksford va Kembrijda tyutorlik tizimi yetakchi o'rin tutgan. Ma'ruzalar faqat yordamchi vosita bo'lib qolgan. Bugungi kungacha bu tizim faoliyat yuritmoqda va tyutorlik lavozimi universitetlar shtat birliklariga kiritilgan muhim pedagogik pozitsiya sifatida mavjud.

Tyutorlik faoliyatining tarixiy rivojlanish tendensiyalarini ochib berishda 2008-yilda Udmurtiya davlat universiteti tomonidan chop etilgan E. va E. Gordonlarning “A Century of Tutoring: A History of Alternative Education in America and Western Europe” (Tyutorlikning yuz yilligi: Amerika va G'arbiy Yevropada muqobil ta'lim tarixi) nomli asari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda mualliflar tarixiy hujjatlar, kundaliklar va yirik pedagoglarning fikrlariga tayangan holda tyutorlikning qadimiy ildizlariga urg'u berib, individual ta'lim tizimi zamonaviy institutlardan oldin shakllanganini asoslab berganlar [5].

Tyutorlik faoliyatining postsovet hududlarida shakllanishi esa ancha kech boshlangan. Xususan, Rossiyada bu faoliyat turi uzoq vaqt davomida deyarli noma'lum bo'lgan. Faqatgina 1980-yillar oxirida, qayta qurish davrida tyutorlik g'oyalari ilmiy-pedagogik muhitga kirib keldi. 1989-yilda P.G. Shchedrovitskiy rahbarligida Moskvada birinchi tyutorlar tanlovi o'tkazilgan. Shundan so'ng, “Artek” oromgohida turli hududlardan to'plangan yosh pedagoglar uchun tyutorlik faoliyatiga oid bir qator ma'ruzalar o'qilgan. Bu jarayon Rossiyada tyutorlik amaliyotining shakllanishiga zamin yaratgan [6].

P.G. Shchedrovitskiy ta'rifiga ko'ra, tyutorlik – bu o'quvchining ta'limga doir motiv va qiziqishlarini aniqlash, individual ta'lim dasturini tuzish, mos resurslarni topish, ota-onalar bilan pedagogik buyurtma asosida ishlash hamda o'quvchining tarbiyasi va reflektiv salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks pedagogik faoliyatdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tyutorlik faoliyati tarixan qadimiy pedagogik institut sifatida shakllangan bo'lib, hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida talaba shaxsining mustaqil fikrlashi, o'zini anglash va rivojlantirishini qo'llab-quvvatlovchi metodik vosita sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tyutorlik faoliyati – bu tarixda o‘qitish va o‘rganish madaniyati bilan baravar shakllangan, mustaqil va o‘ziga xos pedagogik madaniyat namunasidir. U dastlab bilim olish jarayoniga yordam beruvchi faoliyat sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib zamonaviy ta‘lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, masofaviy va kombinatsiyalashgan (blended) ta‘lim tizimlari rivojlanishi bilan tyutorlikning didaktik, metodik va psixologik imkoniyatlari kengaymoqda.

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida tyutorlik faoliyati nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lishiga qaramay, u bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlarda samarali faoliyat yuritmoqda:

1. Talabalarning individual o‘shini, kasbiy yo‘nalishini, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishni ta‘minlash;
2. Universitet va talaba o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy-psixologik moslashuvni qo‘llab-quvvatlash;
3. Ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatlarda yo‘naltiruvchi bo‘lish;
4. Talabalarni “Besh muhim tashabbus” doirasida faol ishtirok etishga undash, iste‘dod va ijodiy salohiyatni rivojlantirish;
5. O‘quv intizomini mustahkamlash, talabalarda halollik, mustaqil fikrlash va fidoyilik fazilatlarini shakllantirish;
6. Ta‘lim sifatini monitoring qilish, davomat, fanlarni o‘zlashtirish va metodik resurslardan foydalanishni nazorat qilish;
7. Turar joy, moddiy-ma‘naviy holat, ta‘limga oid motivlar, ota-ona va talaba o‘rtasidagi kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish.

Zamonaviy tyutor – bu nafaqat o‘quvchi yoki talabaning yo‘l ko‘rsatuvchisi, balki ularning ijtimoiy-psixologik holati, o‘zini anglash, rivojlanish va jamiyatga integratsiyalashuvini ta‘minlovchi kompleks pedagogik figura sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa tyutorlik faoliyatining kelgusida ham dolzarbligini saqlab qolishini va yangi innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan boyib borishini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони // lex.uz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/4545885>
2. Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all: World Education Forum (19–22 May 2015, Incheon, Republic of Korea). – Paris: UNESCO, 2015.
3. Лях А.Ю. Развивающий потенциал тьюторских технологий в системе обучения старших школьников // Образование и наука. – 2013. – № 10 (109). – С. 37–51.
4. Дудчик С.В. Особенности организации тьюторского сопровождения в начальной школе // Организация тьюторского сопровождения в образовательном учреждении: содержание, нормирование и стандартизация деятельности тьютора: материалы Всероссийского научно-методического семинара. – М.: АПК и ППРО, 2009.

5. Ковалева Т.М., Кобыща Е.И., Попова (Смолик) С.Ю., Теров А.А., Чередилина М.Ю. Профессия «тьютор». – М.: Тверь: СФК-офис, 2012. – 246 с.

6. Karimova M., Tuychieva R. The pedagogical basics of training students for professional, moral and educational function // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Vol. 1, No. 10. – P. 311–317.

7. Khaitboevich B.B. Some features of protection of students from the threat of harmful information in the educational process // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, No. 10. – P. 69–72.

8. Maksudov U.K. Issues of national values and social activity of students in the development of positive psychology // Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества: материалы конф. – 2020. – С. 394–396.